

Bir piyola choy ustidagi suhbat

4 - Talabalar turar joyida talaba qizlar o'rtasida "Eng namunali xona" ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Tadbirda Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor R. Choriyev hamda "Gidromelioratsiya" fakulteti dekani A.Fatxullayev va fakultet xotin-kizlar kengashi raisi Z.Beknazarovalar qatnashib g'oliblarga tashakkurnomalr topshirishdi. Tanlovda qizlarimiz xonasining toza-ozodaligi, did bilan jihozlanganligi hamda o'qishda, jamoat ishlarida faol qatnashganliklariga ham baho berildi. Tanlovda 204, 208, 303 - xonalar sohibalari g'olib deb topildi.



Tadbir so'ngida Yoshlar bilan ishlash prorektorimiz talaba qizlar bilan bir piyola choy ustida suhbatlashdi. Talaba qizlar institutimiz rahbariyatiga katta minnatdorchilik bildirdilar. Tadbirni tashkillashtirishda 4- TTJ tarbiyachi pedagogi N.Isokulova va Talabalar kengashi raisi Arzikulovlar o'z hissalarini qo'shdilar.



TIQXMMI matbuot xizmati